
SHUHRAT (ALIMOV G‘ULOM ALIMJONOVICH)



Alimov G‘ulom Alimjonovich - Shuhrat (19.4.1918-20.6.1993). O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1986). Toshkent shahrida tug‘ilgan, O‘rta maktabni tugatgach, O‘rta Osiyo transport injenerlari tayyorlash institutida (1934-1946), Toshkent pedagogika institutida o‘qigan (1936-1946), Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi maslahat byurosi kotibi (1934-1936), adabiy maslahatchi (1955-1958; 1960-1970), Adabiyot jam g‘armasi direktori (1958), “Sharq yulduzi” jurnalida bo‘lim mudiri (1948-1950). Shuhrat 1951 yil 10 fevralda SSSR Davlat xavfsizlik ministrligi tomonidan “Sovetlarga kompartiyaning milliy siyosatiga qarshi tashviqot” da ayblanib qamoqqa olingan. Dalillanmagan so‘roqlar asosida SSSR DXM tomonidan 66 va 67 moddalari bilan ayblanib ishi sudga oshirilgan. Toshkent viloyat sudining jinoiy ishlar hay’ati uni saylash va saylanish huquqidan mahrum qilgan holda jami 25 yil muddatga mehnat tuzatish lageriga surgun qilgan. SSSR Oliy Sudi 1954 yilda ishni va hukmni bekor qilgan. 1955 yil 4 avgustda sud qarorini bekor qilgan va ishni qayta tergov qilishga qaytargan. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1953 yil 27 martdagi “Aministiya haqida”gi farmoniga muvofiq 1955 yil 25 sentabrda sudlanganlik hukmi bekor qilingan. Shuhrat urushdan keyingi davr o‘zbek adabiyotiga katta hissa qo‘shgan yozuvchilarimizdan biridir. Uning ”Bizning ko‘cha” (1947), “Oila”, “Rustam” (1947), “Hayot nafasi” (1948), “Qardoshlar” (1950), Mehrol” (1951), “Balog‘at” (1958), “Bir kecha fojiasi” (1976) to‘plamlari, ”Mardlik afsonasi” (1959), “Guldursin” (1960), “So‘lmas chechaklar”,”Jamila” (1962) dostonlari, “Shinel li yillar” (1968), “Oltin zanglamas” (1965), “Jannat qidirganlar” roman lari e’lon qilingan. Adibning “”Jannat qidirganlar”(1968), “Besh kunlik kuyov” (1970), “Qo‘shaqaringlar” (1973) pesalari respublika teatrlari tomonidan sahnalashtirilgan.